

## ISKANDAR QISSASI FIRDAVSIY VA NIZOMIY TALQINIDA

**Ilyos Abdukayumovich ISMOILOV**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti

## THE STORY OF ALEXANDER IN THE INTERPRETATION OF FIRDAUSI AND NIZAMI

**Ilyos Abdukayumovich ISMOILOV**

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)  
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi,  
Doctoral Student

## ИСТОРИЯ АЛЕКСАНДРА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ФИРДОУСИ И НИЗАМИ

**Ильёс Абдукаюмович ИСМОИЛОВ**

Доктор PhD, докторант  
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы  
имени Алишера Навои  
Ташкент, Узбекистан [ismoilov\\_iles@mail.ru](mailto:ismoilov_iles@mail.ru)

UDC (УЎК, УДК):

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**

Ismoilov I. A. Iskandar qissasi Firdavsiy va Nizomiy talqinida.// O'zbekistonda xorijiy tillar 2022. — № 4 (45). — B. 132-146.

<https://doi.org/10.36078/1666762169>

**Received:** June 25, 2022

**Accepted:** August 17, 2022

**Published:** August 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Open Access**

**Annotatsiya.** Iskandar mavzusi qadimiy asoslarga tayanadi. Ushbu mavzu G'arb-u Sharqda birdek mashhur bo'lib, u o'ziga xos an'anani yuzaga keltirgan. Tarixan mavzu asosida Aleksandr Makedonskiy hayoti va faoliyatiga oid voqea-hodisalar yotadi. Aleksandr shaxsi o'z zamonidan keyin tarixchilar orasida shuhrat qozongan bo'lsa, keyinchalik u adabiyotda ham mashhurlikka erishdi. Xususan, bu mavzu va qissa Sharqqa transformatsiya bo'lgach, turkum asarlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, "Xamsa" yozish an'anasida yuksak mavqe' qozondi. Sharqning Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi buyuk shoirleri mazkur mavzuda maxsus dostonlar yozdilar. Ularning har biri Iskandar shaxsi va qissasini o'z ijodiy niyati, dunyoqarashi va saviyasidan kelib chiqib badiiy talqin etdi. Bu borada Firdavsiy va Nizomiy keyingi ijodkorlarga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, mavzuning keying rivojini belgilab berdi. Mavzuni adabiy qayta ishlash jarayonida ularning har biri original yo'ldan bordi. Ushbu maqolada Firdavsiy va Nizomiy tomonidan yozilgan Iskandar haqidagi dostonlarga xos yetakchi xususiyatlar, ularning o'xshash va farqli jihatlari tadqiq etilgan. Masalaga oid muhim xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Iskandar; qissa; adabiyot; xamsa; Firdavsiy; Nizomiy; talqin.

**Аннотация.** Тема Александра покоится на древних основах. Эта тема одинаково популярна и на Западе, и на Востоке, что создало уникальную традицию. Исторически тема основана на событиях, связанных с жизнью и деятельностью Александра Македонского. Личность Александра приобрела известность среди историков после своего времени, а позже он также приобрел популярность в литературе. В частности, эта тема и сюжет обусловили появление серии произведений после трансформации на Восток. Особенно, он приобрёл высокое

положение в традиции написания хамсы. Великие поэты Востока, такие как Абулкасим Фирдавси, Низами Гянджеви, Хусрав Дехлеви, Абдурахман Джами и Алишер Навои написали на эту тему специальные эпосы. Каждый из них дал художественную интерпретацию личности и истории Искандара, исходя из своего творческого замысла, мировоззрения и уровня. В этом отношении Фирдавси и Низами оказали значительное влияние на последующих творителей, определив дальнейшее развитие темы. В процессе литературной обработки темы каждый из них шел оригинальным путем. В данной статье исследуются ведущие черты поэм об Александре, написанных Фирдоуси и Низами, их сходства и различия. Изложены важные выводы по проблеме.

**Ключевые слова:** Искандар; рассказ; литература; хамса; Фирдоуси; Низами; интерпретация.

**Abstract.** Alexander's theme rests on ancient foundations. This topic is equally popular in the West and the East, and it has created a unique tradition. The historical theme is based on the events related to the life and activities of Alexander the Great. Alexander's personality gained fame among historians after his time, and later he also gained popularity in literature. In particular, this theme and story caused the emergence of a series of works after the transformation to the East. In particular, he gained a high position in the tradition of writing Hamsa. Great poets of the East such as Abulqasim Firdavsi, Nizami Ganjavi, Khusrav Dehlavi, Abdurrahman Jami and Alisher Navoi wrote special epics on this topic. Each of them gave an artistic interpretation of Iskandar's personality and story based on his creative intention, outlook and level. In this regard, Firdavsi and Nizami had a significant influence on the subsequent artists, determined the further development of the subject. In the process of literary processing of the topic, each of them followed an original path. In this article, the leading features of the epics about Alexander written by Firdavsi and Nizami, their similarities and differences are studied. Important conclusions on the issue are presented.

**Keywords:** Iskandar; story; literature; Hamsa; Firdausi; Nizami; interpretation.

**Kirish.** Iskandar qissasining G'arbdan Sharqqa transformatsiyasi jarayonida Aleksandr haqidagi asl tarix emas, aksincha qayta ishlangan va muayyan mafkuralar ta'siriga uchragan manbalar muhim o'rin tutdi. Bunday manbalarning boshida Psevdo-Kallisfen an'anasi, ayniqsa, uning suryoniy versiyasi, Aleksandr haqidagi ikki suryoniy-xristian afsona, shuningdek, Talmud afsonalari turadi. Aleksandrning haqiqiy tarixi va u haqdagi ishonchli manbalar bilan tanish bo'lmagan sharqlik tarixchilar, mufassirlar mazkur manbalarga tayangan tufayli asl haqiqatga muvofiq bo'lmagan qarashlarni bayon qilishdi, natijada sharq xalqlarida Iskandar shaxsi va o'tmishi to'g'risida noto'g'ri tasavvurlar shakllandi. Qur'on nozil bo'lgach Zulqarnayn qissasini ham bu siraga qo'shib yuborib, shundoq ham uydirmalarga to'la qissani yanada chigal holga keltirishdi, shu tariqa sharq manbalarida ko'proq Iskandar haqidagi soxta qissa-yu rivoyatlar keng yoyildi, afsuslanarlisi, ular sharq ziyolilari tomonidan haqiqatdek qabul qilindi.

Mufassir-u muarrixlar xulosasiga tayangan sharqlik adiblar ham, tabiiyki, mazkur tarixiy xatolarni takrorlashdi. Ehtimol, adabiyot

“yo‘l qo‘ygan xatolar”ni uning tarixiy prototip yoki asosdan ko‘ra muayyan voqea yoki qissadan chiqariladigan ibrat, mazmun-mohiyat, tasvir yo‘siniga e‘tibor qaratish xarakteri bilan izohlash mumkindir, biroq obyektiv haqiqat shuki, Iskandar masalasida sharq adabiyoti tayangan manbalarda haqiqatning izlari kam. O‘z-o‘zidan, manbalarga xos yetakchi xususiyatlar sharq adabiyotiga ham ko‘chib o‘tdi, Iskandar obrazi va qissasining asosiy adabiy talqinlarini belgilab berdi.

**Asosiy qism.** Sharq adabiyoti, xususan, epik she‘riyatda Iskandar mavzusining rivoji va unga xos yetakchi tendensiyalar, asosan, xamsanavislik an‘anasi doirasida yaratilgan iskandarnomalarda namoyon bo‘ladi. Biroq xamsanavislik an‘anasi shakllanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan adabiy manbalar ham bor, bu masalada ularni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Jumladan, sharq adabiyotida Iskandar mavzusida birinchilardan bo‘lib maxsus doston yozgan ijodkor Abulqosim Firdavsiy (934–1030)dir. Firdavsiyning “Iskandar podshohligi” dostoni mavzu tarixida ikki jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan:

1. Iskandar qissasining sharq tarixnavisligida ommalashgan klassik namunasi sharq adabiyotiga transformatsiyasi amalga oshirishida muhim bo‘g‘in vazifasini bajardi va Iskandar haqida o‘ziga qadar Sharqda mashhur bo‘lgan barcha qissalarni adabiyotga olib kirdi.

2. Xamsanavislik an‘anasi doirasida yaratilgan iskandarnomalarga adabiy manba vazifasini bajardi, ularga xos yetakchi tendensiyalar shakllanishiga zamin yaratdi va mavzuga oid original, yangi talqinlar yuzaga kelishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bois Iskandar mavzusi va unga oid voqelikning xamsanavislik an‘anasiga transformatsiyasi, xususan, “Saddi Iskandariy” dostoni genezisini bu asarsiz tasavvur qilish qiyin.

Firdavsiy “Shohnoma”ning tarixiy shohlar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan uchinchi qismida Doro ibni Dorob shohligidan so‘ng maxsus “Iskandar podshohligi” dostonini yozgan, doston Iskandarning Eron taxtiga chiqishi voqejasidan boshlanadi. Iskandarning nasabi, Doro bilan janglari va Doroning o‘limiga qadar bo‘lgan voqealar esa bundan avvalgi doston, ya‘ni Doro hukmdorligi haqidagi doston tarkibida tasvirlanadi (7, 499–545).

Firdavsiyning Iskandar mamzusiga yondashuvdagi eng katta o‘ziga xoslik shuki, u Iskandarni nasabiga ko‘ra forslashtirish tarafdori bo‘lib chiqdi. Avvalgi faslda bunday talqin oldinroq tarixchilardan Dinovariy asarida to‘liq holda uchrashi, mutaxassislar ushbu talqin sosoniylar davrida yuzaga kelganini taxmin qilishini qayd etgan edik. Shu tariqa, Iskandar Dorob farzandi, u nasabiga ko‘ra fors degan nuqtayi nazarni epik she‘riyatga olib kirgan ilk ijodkor Firdavsiy bo‘ldi va “Shohnoma”da ushbu talqinni batafsil tasvirladi:

*Mar on shohro dushman az xona bud,  
Yake banda budash, na begona bud (7, 543).*

Firdavsiy tasvirlagan sujet manbasi, asosan, Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasi bo'lib, ayni ushbu asar voqealari Firdavsiy sujetini qoliplab turish vazifasini bajaradi. Ammo boshqa sharq manbalarida bo'lganidek asos sujet o'zgarishlarga uchragan. Jumladan, Iskandarni forslashtirishga oid talqin, Doro va Iskandarning uch bor jang qilishi tasvirlari, chalajon Doroning Iskandardan zardushtiylikni saqlab qolishni so'rashi kabi o'rinlar Firdavsiy o'z dostonini qadimgi fors manbalarining kuchli ta'siri ostida yaratganini anglatadi. Xullas, Firdavsiy Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasini dostonnavislik an'anasiga birinchi bo'lib transformatsiya qildi va Iskandar mavzusining sharq epik she'riyatidagi keyingi rivojining tamalini qo'ydi hamda mavzuning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Firdavsiy iskandarnomasi sujetining kompozitsiyasi tarixiy qissalarnikidan farqli tomonlarga ega. Firdavsiy dostoni Iskandar haqidagi turli mashhur rivoyat-u qissalar yig'indisi, sujeti mantiqsiz tartiblangan asardek taassurot qoldiradi. Go'yo Firdavsiy Iskandar haqida mashhur bo'lgan rivoyat-u qissalarning barchasini qamrab olish maqsadida ularni ketma-ket keltirgandek tasavvur uyg'otadi. Masalan, Firdavsiy Iskandar Eron bilan bog'liq ishlarni saranjom qilganini tasvirlagach, birdaniga Kaydi hindiy qissasi bayoniga o'tadi. Iskandar mavzusiga Sharqda qo'shilgan ushbu sujet linyasi mavjud tarixlarda boshqa o'rinda keladi, ya'ni sharq tarixchilari Hindiston yurishi tasvirida, dastlab, Iskandarning Furga qarshi qo'shin tortishi voqeasini bayon qiladi, bu voqealardan so'ng Kayd isimli hind shohi bilan munosabatlarga kirishgani haqidagi voqealarni tasvirlagan. Firdavsiy esa voqealarning o'rnini o'zgartirgan va dastlab Iskandarning Kayd tomon qo'shin tortishi voqeasini bayon qilib (7, 17–46), keyin Fur voqeasi tasviriga o'tadi. Firdavsiy tasvirlagan Kayd qissasi ham Mas'udiy va Saolibiy qissalaridan qisman farq qiladi — Firdavsiy Kaydning o'n kecha tush ko'rib, tushlari ta'birini go'shanishin avliyo Mehrondan so'ragani, u esa Iskandar uning yurtiga qo'shin bilan kelishi, lekin u bilan aql bilan muomala qilishi, jang qilmasligi kerakligini aytishi haqidagi yangi tafsilotlarni kiritadi (7, 17–27), qolgan voqealar deyarli bir xil. Ularda Kaydning Iskandarga to'rt narsa: *qizi, faylasuf, tabib, ichsa tugamas qadah* yuborgani, ularning ramziy ma'nolari haqida bayon qilinadi. Shu tariqa, Firdavsiy Sharqda yuzaga kelgan ayrim sujet linyalarining kengroq variantini taqdim etadi, bu orqali mavzu mundarijasini yanada boyitadi. Firdavsiyning Fur bilan to'qnashuvga oid tasvirlari Psevdo-Kallisfen va sharq tarixchilari qaydlari bilan deyarli bir xil.

Iskandar mavzusining adabiyotga transformatsiyasi jarayonida Firdavsiy dostoni sharq tarixnavisligi, tafsirchiligi bilan aloqador bir necha yangi sujetlarni ham taqdim etdi. Ammo ularning qissaga kiritilishi bir necha savollarni keltirib chiqaradi, masalan, Firdavsiy Hind safaridan so'ng negadir Iskandarning Ka'baga safarini bayon qiladi (7, 62). Ta'kidlash kerakki, Hind yurishidan so'ng Iskandarning Ka'ba ziyoratiga borishini tasvirlash (7, 60–63) na tarixiy haqiqatga mos, na badiiy mantiqqa ega, hatto, voqealarning bunday ketma-ketligi sharqning tarixiy va diniy manbalarida mavjud emas.

Shubhasiz, Firdavsiy tasvirlagan ushbu epizod zamirida tafsirlarda qayd etilgan ikki Zulqarnayn o'tgani, ularning biri Ibrohim a.s. zamonida yashab, Ka'bani ziyorat qilgani, ikkinchisi rumlik Iskandar ekani haqidagi rivoyatlar yotibdi. Faqat bu epizod tasvirida ushbu qarashlar qorishtirib yuborilgan: birinchidan, unda Iskandar va Zulqarnayn shaxslarini bitta deb tasavvur qilish turibdi, ikkinchidan, ikkita emas bitta Zulqarnayn o'tgani, u ham rumlik Iskandar ekani haqidagi ishonch turibdi, uchinchidan, Ka'bani ziyorat qilgan Zulqarnayn haqidagi gaplarni Iskandar bilan bog'lash istagi turibdi. Mana shu kabi chalg'ishlar natijasida Iskandarning Ka'bani ziyorat qilishi kabi soxta epizodlar yuzaga kelgan va Firdavsiy tomonidan adabiy an'anaga qo'shib yuborilgan.

Iskandar Ka'ba ziyoratidan so'ng negadir Misrga yurish qiladi (bunday sujet Psevdo-Kallisfenga ham zid) (7, 63–64), keyin birdaniga Andalusiya hukmdori malika Kaydofa qissasi bayoniga o'tiladi (7, 64–95), so'ngra Iskandarning yana hind yerlaridagi brahmanlar shahriga borgani voqeasi tasvirlanadi (7, 95–101). To'g'ri, ushbu sujet linyalarining barchasi Psevdo-Kallisfen va sharq tarixida mavjud, ammo ularning sodir bo'lish tartibi Firdavsiy sujeti kompozitsiyasidan butunlay farq qiladi. Chunonchi, Hindistonda Kayd bilan do'stlashib, Furga qarshi jang qilgan Iskandarning u yerdan Arabistonga, so'ngra Misrga kelib, keyin yana Hindistonda yashovchi brahmanlar shahriga borganini hech qaysi mantiq bilan izohlab bo'lmaydi. Bu shuni anglatadiki, Firdavsiy Iskandar haqidagi mashhur sujet linyalari yoki epizodlarni o'zi xohlagandek bog'lab borgan, u Iskandar haqidagi aksar rivoyatlarni qamrab olishni asosiy maqsad qilgan, shu bois bu yo'lda juda ko'p mantiqsizliklarga yo'l qo'ygan. Firdavsiy bundan keyin tasvirlagan Iskandarning Xovar daryosiga borib, Habash zaminida jang qilgani, so'ngra narmpoylar shahriga borib, ajdahoni o'ldirgani, aholisi faqat ayollar bo'lgan Harum shahriga borgani, u yerdan Mag'ribga ketgani voqealarini ham Psevdo-Kallisfen asosida qayta hikoya qiladi (7, 101–119). Faqat narmpoylar (afsonaviy xalq) haqidagi qaydlar qissaga Firdavsiy tomonidan qo'shilgan (7, 105–106).

Firdavsiy Iskandarning Mag'ribga qo'shin tortgani voqeasini tasvirlar ekan mavzu tarixida alohida ahmiyat kasb etgan obi hayot voqeasiga to'xtaladi. E'tiborli tomoni, Firdavsiy tasvirlari "Aleksandr haqidagi soxta xristian afsonalari" sujetiga tayanadi (7, 117–119). Unda Iskandar zulmatga tushib obi hayot qidiradi (7, 119–125). Firdavsiy tasvirlari soxta xristian afsonasi tafsilotlarining qisman o'zgarishlar bilan takrori. Obi hayvon voqealariga ham sharqdagi ayrim motivlar — Xizr, uning payg'ambar sifatida e'tirof etilishi, u yerdagi dashtdan "Allohu akbar" ovozining kelishi, Isrofil bilan uchrashuv kabilar qo'shib ketgan, ayni paytda, bu kabi o'rinlar qissa musulmon dunyoqarashiga ega kishi tomonidan qayta tahrirlanganini ham bildiradi. Boshqa tomondan, Firdavsiy sujetida Talmud adabiyotidagi "Aleksandr va Adan bog'i" afsonasiga xos elementlar ham qorishib ketgan. Shu tariqa, Firdavsiyning obi hayot bilan bog'liq tasvirlari X asrdayoq Aleksandr haqidagi soxta xristian afsonalari, Talmud afsonalari sharq epik she'riyatiga transformatsiya bo'lib

ulgurganini tasdiqlaydi. Firdavsiy keltirgan obi hayot voqeasi keyinchalik ushbu sujet linyasining Iskandar mavzusida muqim bo‘lib qolishi, yanada kengayib borishi, ayrim motiv va detallarining nasriy, nazmiy asarlarda alohida-alohida holda ommalashishiga ulkan zamin yaratdi.

Firdavsiy dostonining yana bir xarakterli jihati Iskandar va Zulqarnayn an‘analarining qo‘shib yuborilishidir. Xususan, Firdavsiy Iskandar Mag‘rib tomondagi bir shahar yaqinida yerli aholining iltimosi bilan Ya‘juj-Ma‘jujlarga qarshi sad qurganini bayon qiladi (7, 125–130). Firdavsiyning Saddi Iskandariy haqidagi voqeani obi hayot qissasidan so‘ng keltirishi ham uning o‘zi yoki u foydalangan manba Aleksandr haqidagi xristian afsonalardan kuchli ta‘sirlanganiga dalolat qiladi. Chunki aynan xristian afsonalarning ikkinchisida obi hayot va temir darvozalar masalasi birgalikda tasvirlangan edi. Lekin Firdavsiy sad masalasida Qur‘onga muvofiq tafsilotlarni keltiradi, hadislardan foydalanadi, bular esa sujetga islomning kuchli ta‘sirini ham ko‘rsatadi. Firdavsiyning keyingi rivoyatlari, xususan, gapiruvchi daraxtlar, Chinga yurish, Iskandarning Bobilga qaytishi, Aristotelga, onasiga xat yozishi, Bobilda o‘lishi, hakimlarning hikmat aytishi kabilar (7, 131–165) Psevdo-Kallisfen va sharq tarixchilarining qaydlariga muvofiq, faqat bu sirada Iskandarning Sind degan yurtga borib jang qilishi voqeasi (7, 143–146) o‘zidan oldingi manbalarda uchramaydi. Firdavsiy Iskandar qissasidan so‘ng alohida bir faslda o‘zining keksalik va dahrdan shikoyatini bayon qiladi. Qayd etish kerakki, Firdavsiyning doston xotimasidagi bunday munosabati ham keyinchalik mavzu tarixida iz qoldirgan. Masalan, Alisher Navoiy ham “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar vafoti yaqinligini bilgach, hayotdan umidini uzgani haqida yozganidan so‘ng “Jahon bazmi soqiylari hayosizlig‘idakim, umr sog‘arig‘a ajal zahri quyarda g‘ofil bila ogoh aro tafovut ko‘rmaslar...” sarlavhali bob keltiradi. Yoki Navoiy “Hayrat ul-abror”ning “Aflok hay‘ati shikoyatidakim” deb boshlanuvchi o‘n to‘rtinchi maqolotidan so‘ng aynan Iskandarning vafoti haqidagi hikoyatni keltiradi. Bular shuni anglatadiki, sharq iskandarnomalarida dunyoning baqosizligi va bevafoqligi motivi bilan Iskandar obrazining bog‘lanib qolishi ham Firdavsiy dostonidan boshlangan.

Firdavsiy talqinida Iskandar obrazi mutlaqo ijobiy talqinga ega, Iskandar forslar bilan yaxshi muomalada bo‘ladi, ularni ezgulikka chorlaydi, askarlarni siylaydi, forslarga hech qanday husumati yo‘qligini takror-takror aytadi, u obod qiluvchi shaxs sifatida ko‘rsatiladi (8, 16). Albatta, bunday talqin tarixiy mantiqqa zid bo‘lsa-da, Iskandar kelib chiqishiga ko‘ra kayoniylardan degan qarashga muvofiq edi. Aytish mumkinki, o‘z obro‘sini saqlab qolish ilinjida hatto tarixni o‘zgartirishga uringan toifaning mafkurasini Firdavsiy qayta badiiy tasvirladi. Holbuki, forslarning va zardushtiy doiralarning asl tasavvurlari buning mutlaqo aksi bo‘lgan, ya‘ni ular Iskandarni bosqinchi, vayronkor shaxs sifatida bilishadi. Bunday tasavvurlarning izlari Isfahoniy va Gardiziy kabi fors tarixchilarining asarlarida saqlanib qolgan. Shu bois Firdavsiyning Iskandar obrazini mutlaqo ijobiy qiyofada tasvirlashi Psevdo-Kallisfenda boshlangan

tendensiyaning forscha davomi deyish mumkin, chunki aynan Psevdo-Kallifenda Iskandar misrliklarning xaloskori va ijobiy qahramoni o'laroq tasvirlangan edi.

Ilyos ibni Yusuf Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) “Iskandarnoma” dostonida, bir tomondan, Firdavsiy an'analarini qisman rivojlantirdi, boshqa tomondan, uni jiddiy yangiladi. Mutaxassislar “Iskandarnoma” 1197–1204-yillar oralig'ida yaratilganini ta'kidlashadi. Nizomiy bu borada “Iqbolnoma”ning xotimasida aytadiki, asarni yakunlagan paytda umrining 63 yil-u 6 oyi o'tgan edi (2, 457). Agar Nizomiyning 1141-yil tug'ilgani inobatga olinsa, “Iskandarnoma” 1205-yil yozib tugatilgan deyish mumkin. Alisher Navoiy esa Nizomiy bu dostonni hijriy 592-yil (milodiy 1196) yozganini eslatadi (3, 357). Debochadan ma'lum bo'lishicha, Nizomiy “Iskandarnoma”ni yozishga kirishishdan oldin o'zini keksaygan his qilgan, ko'proq xilvatnishin bo'lgan, ana shunday yolg'izlik kunlarida shohlar vasfida bir asar yaratishga qaror qilgan (2, 27). Nizomiy nima uchun Iskandar mavzusini tanlagani haqida shunday yozadi:

*Nihodam zi har sheva hangomae,  
Magar dar suxan nav kunam nomae.  
Dar on hayratobodi beyovaron  
Zadam qur'a bar nomi nomovaron.  
Haroina, k-az xotirash toftam,  
Xayoli Sikandar dar o' yoftam (2, 29).*

Nizomiyning qayd etishicha, Xizr doston qanday bo'lishi kerakligi haqida unga ta'lim bergan, ya'ni asar yozishda rioya etiladigan prinsiplarni – *eng ishonchli so'zlarni yozish, aytilganlarni takrorlamaslik*, faqat *ilojsiz o'rinlarnigina qayta aytish mumkinligini* uqtirgan (2, 28). Aslida, bular Nizomiy asarda o'z oldiga qo'ygan ijodiy prinsiplar edi. Shu tariqa, Nizomiyning asosiy maqsadi Iskandar mavzusida original asar yaratish bo'lgan (2, 35).

Nizomiy debochada bu dostonning maqomi va nima uchun shunday nomlangani haqida ham to'xtaladi. Ushbu asarini shu mavzudagi “boshqa asarlar”dan ustun qo'yadi (2, 27). Xususan, uning ta'kidlashicha, Firdavsiy dostonida juda ko'p so'zlar aytilmay qolgan, go'yo u o'zidan keyingi shoirlarga ulush qoldirgandek (2, 27). Boshqa bir o'rinda aytadiki, doston yozishga kirishar ekan Iskandar qissasining turli versiyalariga duch kelgan va Iskandar haqidagi voqealarni to'liq qamragan, mukammal asarni uchratmagan, shu bois ularni aql tarozisida tortib, har biridan o'z asari uchun zarur o'rinlarni saralab olgan (2, 36). Xullas, Nizomiy o'z dostonini ishonchli va qat'iy prinsiplar asosida yozilgan, shu tipdagi asarlardan yaxshiroq, eng muhimi, original asar deb hisoblaydi:

*Nizomiy, ki dar rishta gavhar kashid,  
Qalamdidahoro qalam darkashid.  
Ba nosufta durre, ki dar ganj yoft,  
Tarozuyi xudro guharsanj yoft.  
“Sharafnoma”ro farruxovoza kard,*

*Hadisi kuhanro bad-o' toza kard (2, 27).*

Nizomiy doston tarixiy mavzuda bo'lgani uchun yozganlarining tarix va haqiqat bilan munosabati haqida ham to'xtaladi. U dilga manzur har bir voqeani ko'rgach, aql tarozisida tortib, keyin asarga kiritgan, asardagi voqea-yu rivoyatlarni turli manbalardan saralab olgan. Har qanday uydirmadan voz kechishga intilgan, umuman, o'z dostonida Iskandar tarixining haqiqatga eng yaqin versiyasini tasvirlashga astoydil harakat qilgan. Lekin shu o'rinda Nizomiy nazmdan faqat to'g'ri so'zni, haqiqatni izlab bo'lmasligini, uning hunari so'zga zeb berish ekanini ham to'g'ri ta'kidlaydi. Shu bois u Iskandar haqidagi o'ziga ma'lum va eng ishonchli deb hisoblagan tarixni nazmga solishga qaror qiladi (2, 36–39).

Tabiiyki, an'anaviy mavzuda original asar yaratish oson emas. Nizomiy mana shu maqsadda o'z asarini yaratish uchun turli tillardagi ko'plab manbalarni ko'rib chiqqan va ularni muayyan qarashlar asosida qayta ishlagan:

*Zi har nusxa bardoshtam moyaho,  
Bar o' bastam az nazm peroyaho.  
Ziyodat zi ta'rixhoyi naviy,  
Yahudiy-u nasroniy-u pahlaviy.  
Guzidam zi har nomae nag'zi o',  
Zi har po'st pardoxtam mag'zi o'.  
Zabon dar zabon ganj pardoxtam,  
Az on jumla sarjumlae soxtam (2, 36).*

Nizomiy ushbu baytlarda o'z asarining manbalariga ishora qilmoqda va ular dunyoning turli tillarida bo'lib, asosiylari “yahudiy-u nasroniy-u pahlaviy” tillarida bo'lgan.

Nizomiy “Iskandarnoma”ni yozish uchun turli tillardagi ko'plab manbalarni ko'rib chiqqan va bu orqali eng mukammal versiyasini yaratishga uringan. Bu jarayonda Iskandar haqidagi qissalarning ortiqcha tafsilotlarini tashlab, asosiy mazmunini olgan va turli tillardagi asarlarni o'rganib, ular asosida yaxlit bir asar yaratishga qaror qilgan. Bu ijodiy niyat shuni anglatadiki, Nizomiy “Iskandarnoma”ni Iskandar qissasining turli versiyalarini umumlashtiruvchi, ularga xos asosiy jihatlarni aks ettiruvchi (hatto, noto'g'ri bo'lsa ham) va barcha ma'lumotlarni qamrab oluvchi mukammal asar yaratishni maqsad qilgan. O'zi neytral pozitsiyada turib, Iskandar haqidagi eng ishonchli versiyalarni obyektiv tasvirlashga qaror qilgan. Lekin dostonidagi tasvirlarda ko'ramizki, u hech bir voqeaga obyektiv yondashmaydi, balki ularni o'z aql prizmasidan o'tkazadi, munosabat bildiradi va shu asoslarda talqin etadi. Masalaga bunday yondashuv, bir qarashda, juda mushkil, o'ta mukammal va original hodisadek ko'rinadi, biroq ushbu qarash, ayni paytda, Nizomiyning o'zi tomonidan avvalroq ta'kidlangan *haqiqatni tasvirlash* prinsipiga zid edi.

“Iskandarnoma”ning dastlabki manbasi, shubhasiz, Nizomiyning o'zidir. Asardagi debocha-yu xotima, soqiynoma, mug'anniynoma va andarzlarning barchasi Nizomiyga tegishli.



Manbalari masalasida ta'kidlash kerakki, boshqa shu tipdagi asarlarga qaraganda Nizomiy dostonining Aleksandr haqidagi yunon romanlariga yaqinlik darajasi yuqori. Birgina misol, Nizomiy dastlabki bobda Iskandarning nasabi masalasiga to'xtalar ekan, uch xil qarashni keltiradi: 1. Iskandar bir zohid ayolning farzandi bo'lib, onasi vayronada tug'iboq vafot etgan (rumliklar talqini). 2. Iskandar Dorobning farzandi (ozarparastlar talqini). 3. Iskandar Maqduniya shohi Filqusning haqiqiy farzandi (tarixchilar talqini). Nizomiy so'nggi variantni ma'qullab, dastlabki ikki qarashni rad etadi:

*Dar on har du guftor chustiy nabud,  
Gazofa suxanro durustiy nabud (2, 43).*

Nizomiyning mazkur talqini tarix nuqtayi nazaridan asosli bo'lib, Aleksandr haqidagi eng ishonchli yunon manbalari bilan muvofiq edi. Holbuki, bungacha Sharqdagi aksar badiiy asarlarda nasab masalasida bunday to'g'ri va konkret yondashuv uchramaydi.

“Iskandarnoma”da tasvirlangan voqealarga tayanib dostonning manbalari bir nechta ekanini anglash mumkin, chunki Nizomiy tasvirlagan voqealar bir asarda uchramaydi. Masalan, Nizomiy Iskandarning nasabi borasida Psevdo-Kallisfen talqinini rad etib, yunon manbalariga muvofiq qarashni bayon qiladi, lekin Iskandarning tug'ilish jarayonida yulduzlar va burjlar holatiga qarab fol ko'riladi, ayni holat esa Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasida (6, 11–12) mavjud. Yoki Nizomiy ikkinchi bobda Iskandar Arastuning otasi Naqumojis qo'lida tarbiyalangani haqida yozadi. Tarixdan yaxshi ma'lumki, Aristotelning otasi Nicomachus (Nikomax) Aleksandrning tarbiyachisi bo'lgan emas, balki Aristotelning o'zi Filippning taklifi bilan Iskandarga falsafadan dars bergan. Ushbu tarixiy fakt Sharqda biroz yangilish tushunilgan va Iskandarning ilk ustozlari sifatida Naqumojis tasavvur qilingan, buning natijasida Arastuni maslahatgo'y va vazir sifatida qarash ommalashgan. Aytmoqchimizki, Nizomiy ham Iskandarning tarbiyasi va ustozlari masalasida haqiqiy tarixga emas, Sharqda qayta ishlangan talqinlarga suyangan. Nizomiy Iskandarning ta'lim olishi bobida yana bir qiziq detal – g'oliblik va mag'lublikni oldindan aniqlash jadvali haqida ham yozadi. Unga ko'ra, Naqumojis Iskandarni tarbiyalash jarayonida agar kelajakda shoh bo'lsa, o'g'li Arastuni o'ziga vazir qilishi haqida va'dalashadi, so'ngra unga g'oliblik yoki mag'lublikni oldindan aniqlashga yordam beruvchi jadval yasab beradi (2, 46–47). Ushbu voqea Nizomiy bilan zamondosh bo'lgan Muhammad bin Ali Rovandiyning “Rohat al-sudur va oyat al-surur” asarida ham uchraydi (5, 447–448). Nizomiy dostonidagi Naqumojis va Iskandarning kelajakda Arastuni vazir qilib olish haqidagi suhbat, ahdlashuvining ildizlari ham aynan Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasida mavjud, faqat bu yerda tarixiy haqiqatga ancha yaqin. Psevdo-Kallisfenda, avvalo, Aristotel Aleksandrning falsafa bo'yicha ustozlari ekani qayd etiladi, keyinchalik Aleksandr Aristotelning darslarida ishtirok etgan lavhalar tasvirlanadi, ulardan birida Aristotel shahzodadan so'raydi: “Agar siz shoh bo'lsangiz, menga nima

berasiz?”. Aleksandr: “Mendan kelajak haqida so‘ramang va ertangi kun uchun va‘da olmang. Agar men o‘sha paytda tirik bo‘lsam, nimadir qila olaman” (6, 19). Nizomiy tasvirlagan epizodning ildizi mazkur savol-javob ekani aniq, faqat aslida mutlaqo samimiy va oddiy voqelik bo‘lgan savol-javob transformatsiya jarayonida mansab so‘rash va Arastuning vazir bo‘lishini izohlash darajasiga kelib qolgan. Shu tariqa aytish mumkinki, Nizomiy debochada har qancha asl haqiqatni tasvirlashga intilishini ta’kidlamasin, asarning dastlabki boblaridanoq Iskandar tarixining sharqda qayta ishlangan ikkilamchi versiyalarini tasvirlay boshlaydi.

Nizomiy tasvirlagan Iskandarning zangiylarga qarshi janglari (2, 50–73), Doro bilan to‘qnashuvlar va Eron taxtini egallashi kabi voqealar (2, 73–106) ayrim o‘zgartirilgan tafsilotlar bilan Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasi asosida hikoya qilinadi (6, 35–63). Iskandarning ajamlar otashkadalarini vayron qilishi bilan bog‘liq tasvirlar esa, shubhasiz, pahlaviy manbalardan olingan. Bunday qarashni Tabariy, Hamza Isfahoniy va Saolibiy kabi muarrixlar ham yozib qoldirgan. Nizomiy tasvirlagan bundan keyingi voqealar — Iskandarning Eron ululg‘lari bilan munosabati, fors taxtiga chiqishi, Ravshanakka uylanishi, Ka’ba ziyoratiga borishi, Barda podshohi No‘shoba bilan munosabatlari Firdavsiy dostoni (Kaydofa qissasi) sujeti asosida hikoya qilingan. Ammo Iskandarning Alburz tog‘iga borgani, Darband qal’asini bir zohid duosi bilan ochgani, Sarir qal’asiga borgani, Kayxusrav g‘origa kirgani, Ray va Xurosonga yurgani kabi voqealar Iskandar mavzusiga Nizomiy tomonidan ilk bor olib kirilgan (2, 170–195). Hind, Chin va Tibet yurishlari tasvirida ham masalaga Firdavsiy kabi yondashadi. Iskandarning Dashti Qifchoqqa borishi, No‘shoba tufayli ruslar bilan yetti bor jang qilishi kabi voqealar ham Iskandar mavzusiga Nizomiy tomonidan birinchi bor olib kirilgan, xususan, Nizomiy ruslar bilan janglarni juda batafsil tasvirlaydi (2, 238–284). Nizomiy bu kabi sujet linyalarini o‘z dostoniga kiritish orqali o‘z vataniga tutash yoki unga aloqador hududlar tarixi, geografiyasi, milliy koloritini ham ifodalashga erishgan. Shunga qaraganda, bunday sujetlarning manbasi Kavkaz atroflarida yaratilgan bo‘lishi kerak. Nizomiyning obi hayot qidirish bilan bog‘liq tasvirlari ham Firdavsiy tasvirlari bilan deyarli bir xil (2, 284–298), ushbu qissada yahudiy va suryoniy qissalarning izlari saqlanib qolgan. “Sharafnoma” Iskandarning Runga qaytib kelishi tasviri bilan tugaydi. Aytish mumkinki, Nizomiy “Sharafnoma”ni yaratishda haqiqatan “yahudiy-u suryoniy-u pahlaviy” manbalarga tayangan.

“Iqbolnoma”ning manbalari masalasida shuni aytish kerakki, u hikmat adabiyoti, folklor va islomiy qissalarga tayanadi. Undagi voqealarning na Psevdo-Kallisfenga, na Aleksandrning haqiqiy tarixiga aloqasi bor. Faqat yunon donishmandlarining xiradnomalari, Iskandar va hind donishmandi o‘rtasidagi savol-javob va Iskandarning o‘limi bilan bog‘liq tafsilotlarga u yoki bu darajada Iskandar tarixi bilan bog‘lanadi, qolgan o‘rinlarni esa folklor xarakteriga ega hikoya-yu rivoyatlar, to‘qima afsonalar egallagan. “Iskandar va dono cho‘pon”, “Arshimedis bilan chiniy kanizak”, “Moriyayi qibtiya”,

“Faqir nonvoy”, “Uzuk va cho‘pon”, “Arastu va Aflotun” kabi hikoyatlar folklor namunalari. Dunyoning asosida nima turadi yoki ilk yaratilish xususida yunon faylasuflari tilidan keltirilgan fikrlarda esa antik davr yunon falsafasining yaqqol ta’siri sezilsa, Iskandarning hind donishmandi bilan savol-javoblari zamirida Plutarx tasvirlagan Aleksandrning hind gimnosofistlari bilan qilgan savol-javoblari yotadi (4, 80–81). Iskandarning o‘limi bilan bog‘liq tafsilotlar esa Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasi asosida, ba’zi o‘rinlari Sharqda qayta ishlangan variantlar asosida hikoya qilinadi. Zulqarnayn bilan bog‘liq talqinlarning manbalari ham sharq tarixi-yu tafsirlaridir. Shu tariqa, Nizomiy “Iqbolnoma”da Iskandarni donishmand sifatida tasvirlashga asosiy e’tiborni qaratadi va bu yo‘lda turli folklor, hikmat manbalaridan foydalanadi, lekin doston so‘ngini yana Psevdo-Kallisfen sujeti bilan yakunlab, o‘z dostonida, asosan, shu manbaga tayanganini ko‘rsatadi.

“Sharafnoma”ning kompozitsiyasi 55 bobdan tarkib topgan:

- debocha (11 bob);
- asosiy qism (42 bob);
- xotima (2 bob).

Asar debochasi an’anaviy xarakterga ega bo‘lib, uning dastlabki to‘rt bobi hamd va na’tdan tashkil topgan. Qolgan boblar “Sharafnoma”ning yozishga kirishish (5-bob), hasbi hol bayoni va qarilikdan shikoyat (6-bob), bu asarning boshqa asarlarga nisbatan sharafi (7-bob), doston aytish borasida Xizr ta’limi (8-bob), Atobek A’zam Nusratuddin madhi (9-bob), doston boshlash haqida muxtasar (10-bob), Nizomiyning “Sharafnoma” nazmiga rag‘bati (11-bob) haqida yoziladi. Shundan so‘ng “Og‘ozi doston” bilan asosiy qismga o‘tiladi. Qayd etish kerakki, Firdavsiy o‘z “Iskandarnoma”sining dastlabki bobida, aniqrog‘i dastlabki o‘ttiz baytida Allohga hamd aytib, Muhammad a.s. va Ali r.a.ni esga olib, so‘ngra sulton Mahmudni madh etadi (7, 5–7). Bunday fikrlar uchun alohida bob ajratmaydi, bu boradagi fikrlarni o‘ta siqiq bayon qiladi va davomida asar voqealariga o‘tib ketadi. Firdavsiy dostoni debochasida Nizomiy debochasiga xos eng asosiy jihatlar muxtasar ifoda topgan, ammo Firdavsiyda to‘liq debocha mavjud emas. Shu tariqa, Nizomiy sharq epik she’riyatida Iskandar haqida masnaviy yozish va Iskandar mavzusi tarixiga to‘liq debocha yozish an’anasini ham olib kirdi, deyish mumkin. Lekin Nizomiy debochalari konstruksiyasi ko‘proq ketma-ketlikka asoslangan, u konkret sistema darajasiga ko‘tarilgan emas. Nizomiyning masalaga bunday yondashuvi keyinchalik Iskandar haqida yozilgan aksar asarlarda saqlanib qoldi va sayqallanib mukammal darajaga ko‘tarildi. “Iqbolnoma” (38 bob) ning debochasi (6 bob) ham deyarli “Sharafnoma”niki kabi tuzilgan, asosiy farq shuki, bu doston debochasi noto‘liq, unda boblar soni va ketma-ketligida uzilishlar bor. Masalan, hamd ikki bobda, na’t esa bir bobda tasvirlangan, qolgan boblar turli mavzularga bag‘ishlangan (2, 304–319).

“Sharafnoma”ning asosiy qismi kompozitsiyasi biroz noan’anaviy strukturaga ega bo‘lib, u quyidagicha tartiblangan:

1. Sarlavha.

2. Soqinoma (2 bayt).
3. Andarz (pand, o'git).
4. Doston (qissa, sarguzasht).

“Iqbolnoma” esa nisbatan an'anaviy tuzilishga ega:

1. Sarlavha.
2. Mug'anninoma (yoki mutribnoma, 2 bayt).
3. Doston (qissa).

Nizomiy sarlavhalariga xos eng asosiy xususiyatlar shuki, ular o'ta muxtasar va faqat ma'lumot berishga qaratilgan. Sarlavhalarning asosiy vazifasi esa boblar chegarasini ko'rsatib turish. Nizomiy sarlavhalarining tuzilishi, ifodasi va funksiyasi Firdavsiy sarlavhalarini takrorlaydi. Nizomiy “Iskandarnoma”ning ikkinchi qismi deyarli an'anaviy tuzilishda, ammo birinchi qismi o'ziga xoslik kasb etgan. Aslida, Nizomiy tutgan yo'l Sharq dostonnavisligida keng qo'llangan nazariy fikr va unga isbot keltirish usulining biroz o'zgartirilgan varianti. Nizomiy fors adabiyotidagi andarz (mulohaza, pand) janri imkoniyatlaridan foydalanib, avval biror mavzudagi andarzni kelitrgach, ortidan Iskandarning sarguzashtini tasvirlaydi va ular o'zaro mazmunan bog'lanadi. Andarzlilar qissalardan oldin kelsada, asarning umumiy yo'nalishini belgilamaydi, voqelikning xronologik tasviriga ta'sir etmaydi, aksincha, sarguzashtga daxldor yoki undan kelib chiquvchi xulosa sifatida qayd etiladi, faqat Nizomiy ularni qissalardan oldin joylashtirgan. Mantiqan andarzlilar muayyan qissadan so'ng kelishi lozim bo'lsa-da, Nizomiy an'anani o'zgartirib, ularning o'rnini almashtirgan, natijada o'ziga xoslik yuzaga kelgan.

Nizomiy lirik chekinish, ya'ni soqiynoma va mug'anniynomalar borasida ham shunday yo'l tutgan, ularni bobning boshiga olib chiqish orqali kompozitsion originallikka erishgan. Bunday kompozitsiya orqali o'quvchi e'tiborini masalaga jalb etish, uni fikr yo'nalishi bilan tanshitirish, unga tayyorlash maqsadiga erishgan. Shuningdek, muallif andarz va lirik chekinishlar orqali shaxsiy fikrlari, kechinmalari ifodalashni ham maqsad qilgan, ba'zan bu jihat kuchayib ketib, ularning qissa bilan aloqadorligi uzilib qoladi. Lirik chekinishning doston kompozitsiyasidagi o'rnining o'zgargani, ya'ni ularning bobning oldiga chiqarilishi mazmuniga ham ta'sir etgan. Lirik chekinishlar, odatda, boblar so'ngida kelib, bobdagi fikrlar, tuyg'ular xotimasi sifatida namoyon bo'lsa, Nizomiy lirik chekinishlarida xotimalik xususiyati yo'qolib, ko'proq muqaddimalik xususiyati ortgan. Shuningdek, soqinoma va mug'anninomalar dostonda lirik ruhni kuchaytirgan, holbuki, bu jangnomalar uslubiga mos emas edi. Yana bir e'tiborli jihat shuki, soqiynomalarda ham, andarzlarda ham tasvir uslubi, ifoda tarzi bobda tasvirlanajak voqealar va ularning mazmuni bilan muvofiqlashtirib boriladi. Yuqoridagi fikrlar “Iqbolnoma”ga ham tegishli.

Nizomiy “Iskandarnoma”si kompozitsiyasida hikoyatlar ham munosib o'ringa ega. Nizomiy kompozitsiya yaratishda hikoyatlardan ko'p foydalanmagan bo'lsa-da, ularga o'rnini bilan murojaat etgan. Y. E. Bertelsning qayd etishicha, “Iskandarnoma”da bunday miniatyuralardan foydalanishda biror muayyan tartib mavjud emas. Shoir qayerda kiritish kerak deb hisoblasa, o'sha yerda ular uchraydi

va hech qanday aytarli vazifa bajarmaydi” (1, 349–350). Darhaqiqat, Nizomiy dostonidagi sanoqli hikoyatlar Dehlaviy yoki Navoiyda bo‘lganidek konkret tartibga ega emas, biroq ular asarda muhim vazifa bajargan. Nizomiy ular orqali asarga turli rivoyat-u afsonalarni jalb qilgan, o‘z navbatida, bu Iskandar haqida sharqda mavjud bo‘lgan folklor xarakteridagi tasvurlarni ham ifodalashga imkon tug‘dirgan. “Iskandarnoma”dagi hikoyatlar tasviri bilan bog‘liq yana bir jihat Nizomiyni har bir hikoyatni asar sujetiga singdirib yuborishidir. Hikoyadan voqealar ichida asosiy fikrni tasdiqlovchi, kengaytiruvchi kiritma sifatida foydalanadi. Aslida, Nizomiyni hikoyatlar tasviriga bunday yondashuvini uning ijodiy prinsipi, u qo‘llagan tartib sifatida ham qarash mumkin. Ta’kidlash kerakki, Nizomiy dostonida tasvirlagan hikoyatlar yangi bo‘lib, bunga qadar mavzu tarixida uchramaydi.

**Xulosa.** Firdavsiy boshlab bergan an’analar Nizomiy tomonidan jiddiy qayta ishlandi. Asosiy o‘zgarish talqin bobida yuzaga chiqdi. Nizomiy turli manbalardan o‘zi ishonchli deb hisoblagan voqealarni saralab olib o‘z dostoni sujetini yaratgach, uni yuqoridagi kompozitsiya orqali qayta badiiy tartibladi. Nizomiy amalga oshirgan mazkur ishlar keyinchalik Iskandar haqida asar yaratish an’anasiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, uni jiddiy o‘zgartirib yubordi, bu haqda quyiroqda to‘xtalamiz. Biroq Nizomiyni iskandarnomanavislik tarixidagi eng katta yangiligi, shubhasiz, talqin masalasida bo‘y ko‘rsatdi. Mana Nizomiyni o‘zi “Iskandarnoma” sujetining asosiy yo‘nalishlari va ular orqali ifodalangan asosiy talqinlar haqida nima deydi:

*Guro ‘hesh xonand sohibsarir  
Viloyatsiton, balki ofoqqir.  
Guro ‘he zi devoni dasturi o‘,  
Ba hikmat nabishtand manshuri o‘.  
Guro ‘he zi pokiy-u dinparvariy  
Paziro shudandash ba payg‘ambariy.  
Man az har se dona, ki dono fishond,  
Daraxte barumand xoham nishond (2, 29).*

Ya’ni Nizomiy Iskandar haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib uch katta guruhga bo‘ladi. Bu yerdagi yangilik shuki, Nizomiy o‘z asarida mana shu uch qarashni umumlashtirib, Iskandar obrazini ham jahongir, ham faylasuf, ham payg‘ambar sifatida tasvirlashga qaror qilishidir. Bu mavzu tarixida noyob dovyuraklik edi. Biz avvalroq Firdavsiy o‘z dostonida Iskandarni, asosan, podshoh sifatida talqin qilganini ko‘rdik. Bu — mavzu, tarix, obyekt va uslub nuqtayi nazaridan eng to‘g‘ri yo‘l. Ammo Nizomiy manbalar, kompozitsiya va sujet masalasida Firdavsiy an’analarini qanday buzib yuborgan bo‘lsa, talqin borasida undan-da katta o‘zgarishlarga qo‘l urdi. Nizomiy Iskandar obrazini uch bosqichdan o‘tuvchi – avval jahongirlik qilib dunyoni olgan odil shoh, keyin shohlikdan dunyoning mohiyatini anglash orqali faylasuf darajasiga ko‘tarilgan donishmand, oxirda donishmandlikdan payg‘ambarlik maqomiga

ko'tarilgan siymo o'laroq tasvirlashga qaror qildi. Nizomiyning ushbu ijodiy niyati, tabiiyki, doston sujetini uch katta qismga bo'lib yuborgan: "Sharafnoma"da to'liq Iskandarning jahongirlik yurshlari tasvirlandi, "Iqbolnoma"da esa avval Iskandarning faylasufligi (1 – 12-boblar), song'ra payg'ambarlik maqomiga ko'tarilib, dunyoga payg'ambar sifatida qilgan safari (13 – 21-boblar) tasvirlandi. Asardagi boshqa barcha tasvirlar mana shu uch asosiy talqinga, alaloqibat, Iskandarni uch ruhiy-ma'naviy maqomni bosib o'tgan yoki ularni o'zida mujassam qilgan buyuk shaxs sifatida ko'rsatuvchi bosh maqsadga xizmat qildirilgan. Nizomiyning talqin bobidagi asosiy yangiligi mana shundan iborat.

Bir tomondan, mavzu va uning bosh qahramoniga bunday yondashuv original edi, chunki Nizomiya qadar mavzu tarixida bunday umumlashgan va birlashtirish nihoyatda mushkil bo'lgan talqinni ko'rmaymiz. Boshqa tomondan, Nizomiyning ayni yondashuvi Iskandar kechmishi bilan bog'liq "buyuk xatolar" va uydirmalarning asarga kirib borishiga zamin yaratdi. Nizomiy har qancha haqiqatni aniqlashga intilib, uydirma-yu yolg'onlardan yuz o'g'rimasin, uning talqin borasidagi qarorlari bunga to'sqinlik qilgan. Natijada Nizomiy o'z-o'zini salafariga nisbatan ko'proq uydirma-yu yolg'onlarni tasvirlashga majbur qildi. Nizomiyning uch xil qarashga asoslangan talqini Iskandar haqida o'ziga qadar mavjud bo'lgan va alohida-alohida holda yashab kelgan qarash-u talqinlarni (aslida, ularning o'zlari ham adishishlarga to'la) qo'shib yuborish tufayli haqiqat bobida yanada ulkan yangilish talqinlarni keltirib chiqargan. To'g'ri, bu dostonni badiiy asar sifatida qabul qilish mumkin, lekin tarixiy mavzudagi asarda muallif talqini, tarixiy kontekst hamda zamon-makon o'rtasida muvozanat, mutanosiblik bo'lishi shart.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. — Москва: Наука, 1965. — 498 с.
2. Ганчавӣ Н. Хамса: Искандарнома. — Душанбе: Адиб, 2012. — 480 с.
3. Навоий Алишер. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. — Тошкент: Фан, 2001. — 400 б.
4. Плутарх. Сайланма. Искандар Макдунли. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. — 7–93-б.
5. Rovandiy Muhammad Ali. Rohat as-sudur va oyat as-surur. — Tehron: Asotir, 1385. — 648 s.
6. The History of Alexander the Great, being the Syriac Version of the Pseudo-Callisthenes. Edited from five manuscripts, with an English translation and notes by Ernest A. Wallis Budge. — Cambridge: At the University press, 1889. — 680 p.
7. Фирдавсӣ А. Шоҳнома: иборат аз 9 ҷилд. Ҷилд 6. — Душанбе: Адиб, 1989. — 552 с.
8. Фирдавсӣ А. Шоҳнома: иборат аз 9 ҷилд. Ҷилд 7. — Душанбе: Адиб, 1989. — 656 с.

**References**

1. Bertels Ye.E. *Izbrannie trudi* (Selected writings), Vol. 4, Navoi i Zhami, Moscow, 1965, 498 p.
2. Ganzhavi N. *Xamsa: Iskandarnoma* (Hamsa: Iskandarnama), Dushanbe, 2012, 480 p.
3. Navoi A. *Nasoim al-muhabbat* (Breezes of love), Perfect collection of works, Tashkent: Ology, 2001, 400 p.
4. Plutarch. *Selected writings. Alexander the Great. The translators are Zahir A'lam and Urfon Atajon*, Tashkent: Generation of the new age, 2006, pp. 7–93.
5. Rowandi Muhammad Ali. *Rohat as-sadur and ayat as-surur*, Tehran: Story, 1385, 648 p.
6. *The History of Alexander the Great, being the Syriac Version of the Pseudo-Callisthenes*. Edited from five manuscripts, with an English translation and notes by Ernest A. Walllis Budge, Cambridge: At the University press, 1889, 680 p.
7. Firdausi A. *Shahnama: consists of 9 volumes. Volume 6*, Dushanbe, 1989, 552 p.
8. Firdausi A. *Shahnama: consists of 9 volumes. Volume 7*, Dushanbe, 1989, 656 p.